

Adabiyotlar

1. Deluca C., Klinger D.A. Assessment literacy development: Identifying gaps in teacher candidates' learning. // *Assessment in Education*, 2010, 17(4). – P. 419-438.
2. Edwards F. A rubric to track the development of secondary pre-service and novice teachers' summative assessment literacy. // *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 2017, 24(2). – P. 205–227.
3. Fulcher G. Assessment literacy for the language classroom. // *Language Assessment Quarterly*, 2012, 9(2). – P. 113-132.
4. Inbar-Lourie O. Language assessment culture. In Hornberger N. (Ed.), *Encyclopedia of language and education*. 2nd ed., 2008, – P. 285-300. Springer.
5. Pastore S., Andrade H.L. Teacher assessment literacy: A three-dimensional model. // *Teaching and Teacher Education*, 2019, 84, – P. 128-138.
6. Stiggins R.J. Evaluating classroom assessment training in teacher education programs. // *Educational Measurement: Issues and Practice*, 1999, 18(1), – P. 23-27.
7. Taylor L. Communicating the theory, practice and principles of language testing to test stakeholders: Some reflections. // *Language Testing*, 2013, 30(3), – P. 403-412.
8. Xu Y., Brown G. T. L. Teacher assessment literacy in practice: A reconceptualization. // *Teaching and Teacher Education*, 2016, 58, – P. 149-162.

REZYUME. Maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida qo'llanilayotgan summativ baholashning nazariy-metodik asoslari chuqur tahlil qilinadi. Unda baholashning pedagogik jarayondagi o'rni, asosiy tamoyillari, funksiyalari hamda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, baholash natijalarining ta'lim sifatiga ta'siri, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqalarga ko'rsatuvchi ta'siri atroflicha o'rganiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье всесторонне анализируются теоретико-методические основы суммативного оценивания, применяемого в системе общего среднего образования. Раскрывается роль оценивания в педагогическом процессе, его основные принципы, функции, а также значение в развитии знаний, умений и компетенций учащихся. Кроме того, подробно изучается влияние результатов оценивания на качество образования и их воздействие на взаимодействие между учителем и учеником.

SUMMARY. The article provides an in-depth analysis of the theoretical and methodological foundations of summative assessment used in the general secondary education system. It highlights the role of assessment in the pedagogical process, its main principles, functions, and its significance in the development of students' knowledge, skills, and competencies. Additionally, the article thoroughly examines the impact of assessment results on the quality of education and their influence on the interaction between teachers and students.

TURLI OMILLAR TA'SIRI OSTIDAGI AKKLIMATIZATSIYANING SPORTCHI ORGANIZMIGA TA'SIRI

G'N.Ernazarov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor*

Z.M.To'xtasinova – *o'qituvchi*

Farg'ona davlat universiteti

Tayanch so'zlar: akklimatizatsiya, sport fiziologiyasi, balandlik moslashuvi, eritrotsitlar, tog'da mashq.

Ключевые слова: акклиматизация, спортивная физиология, адаптация к высоте, эритроциты, тренировки в горах.

Key words: acclimatization, sports physiology, adaptation to altitude, erythrocytes, training in the mountains.

Kirish. Sportda yuqori natijalarga erishish faqat jismoniy mashqlar va to'g'ri ovqatlanish bilangina bog'liq emas. Sportchining yangi iqlimiy va tabiiy muhitga moslashishi – ya'ni akklimatizatsiya jarayoni – uning umumiy samaradorligiga, o'quv-mashg'ulot jarayoniga va musobaqadagi natijasiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Akklimatizatsiya – bu organizmning yangi iqlimiy, geografik, balandlik, namlik va harorat kabi muhit omillariga biologik va fiziologik moslashish jarayonidir. Ushbu jarayon sportda ayniqsa muhim, chunki musobaqalar turli mintaqalarda va iqlimlarda o'tkaziladi. Agar sportchi yangi muhitga moslasha olmasa, bu nafaqat uning jismoniy holatiga, balki ruhiy barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Akklimatizatsiya jarayoni sportchining mushak faoliyati, yurak-qon tomir tizimi, nafas olish tizimi, metabolism va psixoemotsional holatida muhim o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Shu bois, turli omillar ta'sirini

o'rganish va bu jarayonni samarali tashkil qilish – sport tibbiyoti va sport falsafasi sohasida muhim masalalardan hisoblanadi. atrof-muhitning yuqori harorati sharoitida jismoniy mashqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun shug'ullanuvchilar, xususan sportchilarni tashqi muhit va sharoitlarga akklimatizatsiya qilish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlar kam o'rganilgan. Shu maqsadda ushbu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish eng dolzarb mavzulardan biridir. Agarda odam, tashqi muhit harorati, uning tana haroratidan yuqori bo'lgan sharoitda yashashiga yoki jismoniy yuklamani tizimli bajarishiga to'g'ri kelsa, unda u, akklimatizatsiya qilgan bo'lsa, noqulay tashqi sharoitlarga qaramasdan yetarlicha kuchli jismoniy ishni bajara oladi. Akklimatizatsiya darajasi va tezligi issiqlik yuklamasining chastotasi va davomiyligiga nisbatan, ko'proq darajada issiqlik yuklamasining jadalligiga bog'liq. Agarda, tashqi sharoitlar o'zgarasa, unda, teskari reakklimatizatsiya sodir bo'ladi [1:160].

Akklimatizatsiyaga eksponensial qonun bo'yicha yerishiladi: avvali-ga tez, keyin yesa, birmuncha sekin. Adaptatsion qayta qurishlarning ko'p qismi havo harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda yashashning birinchi uch-to'rt kuni chegarasida nisbatan tez sodir bo'ladi, o'zgarishlarning ko'proq qismi birinchi-ikki hafta chegarasida yakunlanadi. Issiqlikka akklimatizatsiya qilish komfort sharoitlarda o'tkaziladigan jismoniy trenirovka bilan almashtirilishi mumkinmi, degan savol muhimdir.

Sportchilarni har xil geografik sharoitlardagi musobaqalarga tayyorlanishda tashqi muxitga moslashish kam o'rganilgan xolatlardan biridir. Bunday turli sharoitlar o'z navbatida organizmning sharoitga moslashish jarayonini talab qiladi. Agarda odam, tashqi muhit harorati, uning tana haroratidan yuqori bo'lgan sharoitda yashashga yoki jismoniy yuklamani tizimli bajarishiga to'g'ri kelsa, unda u, akklimatizatsiya qilgan bo'lsa, noqulay tashqi sharoitlarga qaramasdan yetarlicha kuchli jismoniy ishini bajara oladi. Akklimatizatsiya darajasi va tezligi issiqlik yuklamasining chastotasi va davomiyligiga nisbatan, ko'proq darajada issiqlik yuklamasining jadalligiga bog'liq. Agarda, tashqi sharoitlar o'zgarsa, unda, teskari reakklimatizatsiya sodir bo'ladi. Yurak-tomir tizimini trenirovka qilish va issiqlikka akklimatizatsiyasi ayrim umumiy qirralarga yega. Yaxshi jismoniy tayyorgarlikka yega bo'lgan sportchilar issiq iqlim sharoitlariga yetarlicha tez akklimatizatsiya bo'lishadi, keksa odamlar va ortiqcha vaznga yega bo'lgan odamlar yesa, bunday o'zgarishlarga ancha katta qiyinchilik bilan reaksiya qilishadi. Yurak-tomir tizimini jismoniy mashqlar yordamida trenirovka qilish, odamni yuqori haroratlarga chidashga qisman tayyorlaydi, uni detrenirovkasi teskari samaraga olib keladi [2:166].

Shu bilan birga, chidamlilikning takomillashtirilishi paytida, adap-tatsiyaning yuqori tashqi harorat sharoitida yashashga va jismonan ishlashga bunday olib o'tilishi to'liq hisoblanmaydi. Agarda odam, kuchli jismoniy ishini yuqori tashqi harorat sharoitida bajarishga tayyor bo'lishi kerak bo'lsa, maksimal adaptatsiyaga, tayyorgarlikda issiqlik va jismoniy yuklamalar kombinatsiyasi qo'llaniladigan sharoitdagina yerishiladi.

Issiqlik yuklamalariga akklimatizatsiya bilan kuchli jismoniy ishga akklimatizatsiya o'rtasidagi sezilarli darajadagi farq shundan iboratki, birinchi holatda, katta miqdordagi teri osti qon aylanishini, ikkinchi holatda yesa – ish bajarayotgan mushaklar orqalikatta miqdordagi qon aylanishini ta'minlash zarur.

Akklimatizatsiyaga eksponensial qonun bo'yicha yerishiladi: avvaliga tez, keyin yesa, birmuncha sekin. Adaptatsion qayta qurishlarning ko'p qismi havo harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda yashashning birinchi uch-to'rt kuni chegarasida nisbatan tez sodir bo'ladi, o'zgarishlarning ko'proq qismi birinchi-ikki hafta chegarasida yakunlanadi. Havo harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda jismoniy ishga akklimatizatsiya bo'lish paytida, termokamerada va hokazolarda bo'lish kabi muolajalarning qo'llanilishi ma'lum darajada foyda keltirsa ham, to'liq akklimatizatsiyaga yerishish uchun jismoniy yuklamalarning bajarilishi nazarda tutilgan joyga (masalan, musobaqalar o'tkaziladigan joyga) ko'chib borish zarur,

chunki faqatgina shunda, to'liq akklimatizatsiyaga yerishish mumkin [3:223].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlarda akklimatizatsiyaning sportchi organizmiga ta'siri bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Quyida ulardan asosiylariga to'xtalamiz:

1. Iqlimiy omillar ta'siri. Iqlim o'zgarishi (issiqlik, sovuq, namlik darajasi va havo bosimi) sportchining organizm faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, **issiqlik iqlimida** jismoniy faoliyat yurak urishi va nafas olish chastotasining oshishiga olib keladi. Harorat oshishi bilan tanada suv yo'qotilishi ortib, gipogidratsiya xavfi yuzaga keladi.

Harorat: Haroratning keskin o'zgarishi sportchi organizmiga stress yuklaydi. Issiq iqlimda tana ko'proq ter ajratadi, bu esa suvsizlanish xavfini oshiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, yuqori haroratda sportchilar 10-15% ko'proq energiya sarflaydi. Harorat 30°C dan yuqori bo'lganda sportchilarning tezligi 3-5% ga pasayishi kuzatiladi.

Namlik: Yuqori namlik sharoitida issiqlik almashinuvi sekinlashadi, bu esa charchoqqa olib keladi. Past namlikda esa nafas olish tizimi ko'proq yuklanadi. Namlik darajasi 70% dan yuqori bo'lganda sportchilarning chidamliligi 5-7% ga kamayadi.

2. Shamol: Shamolning tezligi va kuchi sportchilarning energiya sarfini oshiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, shamol qarshiligida yugurish paytida energiya sarfi 5-10% ga oshadi. Shamolning har 10 km/soat tezligi energiya sarfini 1.2% ga oshiradi.

3. Geografik omillar. Balandlik: Dengiz sathidan yuqoriroq balandliklarda kislorod miqdori kamayadi. Bu esa gipoksiya (kislorod yetishmasligi) holatiga olib kelishi mumkin. Balandlikda mashq qilgan sportchilarning yurak hajmi o'rtacha 7% ga oshishi aniqlangan. O'rtacha balandlikda (1500-2500 metr) moslashuv 7-10 kun davom etadi, yuqori balandlikda (3000-4000 metr) esa bu muddat 2-3 haftaga cho'ziladi. 3000 metr balandlikda mashq qilgan sportchilarning qonidagi eritrotsitlar miqdori 15% ga oshadi.

Atmosfera bosimi: Past bosimli hududlarda yurak-qon tomir tizimi ko'proq ishlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, balandlikda 2 hafta davomida yurak urish tezligi 10-15% ga ortadi.

Sovuq iqlimda esa energiya sarfi ortib, mushaklarning ishlash qobiliyati pasayadi. Shunday iqlimlarda organizm moslashuv reflekslarini faollashtiradi, ayniqsa, termoregulyatsiya tizimida o'zgarishlar yuz beradi.

4. Biologik omillar. Yosh va jins: Yosh sportchilar akklimatizatsiyaga tezroq moslashadi. Jins ham muhim rol o'ynaydi, chunki erkak va ayollar organizmi turli xil fiziologik javob qaytaradi. Tadqiqotlarga ko'ra, erkak sportchilar ayollarga nisbatan 12-15% tezroq akklimatizatsiyaga moslashadi.

Genetika: Genetik moyillik ba'zi sportchilarning balandlik yoki ekstremal iqlim sharoitlariga yaxshiroq moslashishini ta'minlaydi. Genetik jihatdan balandlikka moslashgan sportchilarning yurak hajmi o'rtacha 8-10% kattaroq bo'lishi aniqlangan.

Termoregulyatsiya: Issiq sharoitda organizm ko'proq ter ajratib, tana haroratini meyarda ushlaydi. Balandlikda

mashq qilish natijasida muskullar ko'proq mitoxondriyaga ega bo'ladi va chidamlilik 12% ga oshadi.

O'zbek sportchilarining akklimatizatsiya natijalarini o'rganish natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlandi. O'zbekiston sportchilari ham balandlik sharoitlarida akklimatizatsiya orqali sezilarli natijalarga erishib kelmoqda. 2022 yilda Chimyon tog'larida o'tkazilgan 3 haftalik tayyorgarlik yig'inida O'zbekiston yengil atletika terma jamoasi a'zolari o'z natijalarini o'rtacha 10% ga yaxshilagan. Boks bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi esa balandlikdagi yig'inlardan so'ng musobaqalarda 12% ga yuqori natijalarga erishgan. 2023 yilda Beldersoyda bo'lib o'tgan tog' yig'inlari davomida kurashchilar va marafon yuguruvchilari o'z yurak urish chastotasini balandlikka moslashish jarayonida 8-10% ga pasaytirishga muvaffaq bo'lgan. Bu esa ularga kislorod yetishmovchiligi sharoitida yuqori chidamlilik bilan ishtirok etishga imkon bergan. Natijada O'zbekiston sportchilari Osiyo o'yinlarida 15 ta medalga ega chiqishgan, ulardan 7 tasi oltin medal bo'lgan.

Musobaqa oldidan o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, akklimatizatsiyaga yaxshi moslashgan sportchilar 1000-2000 metr balandlikda musobaqa o'tkazilganida 8-15% yaxshiroq natija ko'rsatadi. Bu yondashuv ayniqsa yengil atletika va boks turlarida o'zini namoyon qilgan.

Quyida akklimatizatsiyani yaxshilash usullari haqida o'rganishlar natijasini keltirmoqchiman.

1. Bosqichma-bosqich moslashish – Sportchilar yangi sharoitlarga asta-sekin moslashishi kerak. Tadqiqotlarga ko'ra, bosqichma-bosqich balandlikka ko'tarilish sportchining yurak-qon tomir tizimini 15% ga kuchaytiradi.

2. Maxsus tayyorgarlik dasturlari – Issiq yoki sovuq muhitda maxsus mashg'ulotlar o'tkazish akklimatizatsiyani tezlashtiradi.

3. Dieta va gidratatsiya - To'g'ri ovqatlanish va suyuqlik qabul qilish akklimatizatsiyani tezlashtiradi.

4. Yuqori balandlik simulyatori – Sun'iy gipoksiya sharoitida mashq qilish organizmni tezroq moslashtiradi.

5. Psixologik tayyorgarlik - Mental moslashuv usullari sportchilar stressini kamaytiradi va moslashuv jarayonini osonlashtiradi [4:150-159].

2. Balanlik omili (gipoksiya). Baland tog'li hududlarda havoda kislorod miqdori kamaygan bo'lib, bu holat **gipoksiya** deb ataladi. Bunday sharoitda sportchining yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi. Balandlikda akklimatizatsiya jarayonida gemoglobin va eritrotsitlar soni ortishi, bu esa kislorod tashish qobiliyatini yaxshilaydi. Mutaxassislar (masalan, D.Norqulov) ta'kidlaganidek, 2-3 hafta mobaynida sportchi balandlik sharoitiga moslasha boshlaydi va bu vaqt davomida yurak hajmi, nafas olish chastotasi va sinovial suyuqlik miqdorida o'zgarishlar kuzatiladi.

4. Akklimatizatsiya davri. Tadqiqotlarga ko'ra, akklimatizatsiya davomiyligi omillarga bog'liq holda 7 kundan 21 kungacha davom etishi mumkin. Masalan, Sh.Xonkeldiyev va G'.N.Ernazarovlar ishida bu muddatni to'g'ri tashkil etish sport natijalariga 10-15% gacha ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aytilgan.

Natijalar muhokamasi. Akklimatizatsiyaning sportchi organizmiga ta'siri jismoniy, fiziologik va psixoeemotsional jihatdan ko'p qirralidir. Quyida asosiy natijalarni muhokama qilamiz:

1. Jismoniy samaradorlik. Sportchining kislorod tanqisligi, harorat, namlik va bosim kabi omillarga moslashishi uning mushak ishlashi va aniq harakatlarni bajarish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Moslashmagan sportchida charchoq tezroq yuzaga keladi, nafas olish muammolari, mushaklarda og'riq va qattiqlashish kuzatiladi.

2. Yurak-qon tomir tizimi Akklimatizatsiya jarayonida sportchining yurak urishida, qon bosimida va kislorod tashish qobiliyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi. Balandlikda yurak ishi faollashadi, taxikardiya, nafas qisishi kuzatilishi mumkin. Biroq to'g'ri moslashish jarayonida organizm anaerob va aerob yechimlarga o'tish qobiliyatini yaxshilaydi.

Yurak-tomir tizimini trenirovka qilish va issiqlikka akklimatizat-siyasi ayrim umumiy qirralarga yega. Yaxshi jismoniy tayyorgarlikka yega bo'lgan sportchilar issiq iqlim sharoitlariga yetarlicha tez akklimatizat-siya bo'lishadi, keksa odamlar va ortiqcha vaznga yega bo'lgan odamlar yesa, bunday o'zgarishlarga ancha katta qiyinchilik bilan reaksiya qilishadi. Yurak-tomir tizimini jismoniy mashqlar yordamida trenirovka qilish, odamni yuqori haroratlarga chidashga qisman tayyorlaydi, uni detrenirovkasi teskari samaraga olib keladi.

3. Nafas olish tizimi. Nafas olish tizimi akklimatizatsiyaning ilk bosqichlarida eng ko'p ta'sirlanadi. Sportchilar nafas olish chastotasi oshishi, nafas qisishi, giperventilyatsiyani his qilishlari mumkin. Vaqt o'tishi bilan, nafasning samaradorligi ortadi va tana yangi muhitga moslasha boshlaydi.

4. Ruhiy holat va stress. Akklimatizatsiya ruhiy holatga ham ta'sir qiladi. Yangi muhit, unga moslashish qiyinligi, uyqu buzilishi, xronobiologik ritmlar o'zgarishi sportchini ruhiy zo'riqishga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib, psixologik tayyorgarlik va reabilitatsiya jarayonlari ham muhim hisoblanadi.

Havo harorati yuqori bo'lgan sharoitlarda jismoniy ishga akklimatizatsiya bo'lish paytida, termokamerada va hokazolarda bo'lish kabi muolajalarning qo'llanilishi ma'lum darajada foyda keltirsa ham, to'liq akklimatizatsiyaga yerishish uchun jismoniy yuklamalarning bajarilishi nazarda tutilgan joyga (masalan, musobaqalar o'tkaziladigan joyga) ko'chib borish zarur, chunki faqatgina shunda, to'liq akklimatizatsiyaga yerishish mumkin [5:1-8].

Xulosa. Turli iqlimiy va geografik sharoitlarga moslashish sportchining jismoniy, fiziologik va ruhiy holatida muayyan o'zgarishlar yuzaga keltiradi. Akklimatizatsiya jarayoni to'g'ri tashkil etilsa quyidagilarga javob beradi. Sportchining kislorod tashish qobiliyati yaxshilanadi, yurak-qon tomir va nafas olish tizimi samaradorligi ortadi, jismoniy faoliyatga moslashish tezlashadi, ruhiy barqarorlik ta'minlanadi. Shu bois, musobaqalar yoki yig'inlardan oldin sportchilarni mos muhitga adaptatsiya qilish, akklimatizatsiya davrini oldindan rejalashtirish va tibbiy kuzatuvni amalga oshirish juda muhimligi aniqlandi.

Adabiyotlar

1. Ernazarov G'.N. O'quvchi-yoshlar jismoniy tarbiyasining xududiy xususiyatlari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: «Umid design», 2022,160-b.
2. Ernazarov G'.N. Jismoniy tarbiyaning ryegional xususiyatlari. O'quv qo'llanma. – Farg'ona: «Poligraf Super Servis», 2023,166-b.
3. Ernazarov G'.N. Jismoniy tarbiyaning ryegional xususiyatlari. Darslik. – Farg'ona: «Poligraf Super Servis», 2024, 223-b.
4. Ernazarov G.N. Physical qualities of students learn. // International journal of social science & interdisciplinary research. ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 2022, 11(12), – P. 150-159.
5. Ernazarov G.N. Various ecological in the circumstances living school of archers physical ability to work and hemodynamic parameters. // International journal of social science & interdisciplinary research. ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 2022, 11(12), – P. 1-8.

REZYUME. Maqolada sportchilarning turli geografik sharoitlarga moslashishi – akklimatizatsiya jarayoni keng yoritiladi. Akklimatizatsiyaning qisqa va uzoq muddatli turlari, shuningdek, o'zbek sportchilarining tog'li hududlarda mashq qilish orqali natijalarini qanday yaxshilagani haqida misollar keltiriladi.

РЕЗЮМЕ. В статье подробно рассматривается процесс акклиматизации спортсменов к различным географическим условиям. Описаны краткосрочные и долгосрочные виды акклиматизации, а также приведены примеры улучшения результатов узбекских спортсменов благодаря тренировкам в горных районах.

SUMMARY. The article examines in detail the process of acclimatization of athletes to various geographical conditions. Short-term and long-term types of acclimatization are described, and examples of improved results are given of Uzbek athletes thanks to training in mountainous areas.

UDK: 378.091.3:339.543

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA IJTIMOY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY ASOSLARI HAMDA IJTIMOY-PEDAGOGIK OMILLARI

N.Xolmirzayev – doktorant

Navoiy davlat universiteti

Tayanch so'zlar: milliy qadriyat, o'z-o'zini anglash, oliy ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, ijtimoiy faollik, sharq allomalari, ijtimoiy-madaniy kompetensiya komponentlari, ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish.

Ключевые слова: национальная ценность, самосознание, высшее образование, будущий учитель, компетентность, социокультурная компетентность, общественная активность, востоковеды, компоненты социокультурной компетентности, развитие социокультурной компетентности.

Key words: national value, self-awareness, higher education, future teacher, competence, socio-cultural competence, social activism, oriental scholars, components of socio-cultural competence, development of socio-cultural competence.

Kirish. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik – ijtimoiy-madaniy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olishdir [2]. F.D.Garbovning [3:18] tadqiqotlarida ma'lum bo'lishicha ma'lum sharoitlarda jamoa bo'lib, birgalikda ishlash o'zaro harakatda ishtirok etayotgan guruhning har bir a'zosi shaxsning shakllanishiga imkon beradi. Bu birgalikdagi faoliyat jipslashgan guruhlarda ro'y beradi.

Ijtimoiy – madaniy kompetensiya bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy subyekt sifatida ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonida o'z axloqiy imkoniyatini amalga oshirish layoqatidir. Shaxsning xususiyati va uning jo'shqin tuzilmasi bo'lgan ijtimoiy-madaniy kompetensiya turli darajada namoyon bo'ladi [4:3].

Ko'pgina pedagog olimlar ijtimoiy-madaniy kompetensiyani ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsad va ideallarga mos ravishda ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarni o'zgartirishga, ijtimoiy innovatsiyalarni ilgari surish va amalga oshirishga, o'zida zaruriy ijtimoiy-madaniy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar, ish tartibining majmui sifatida qabul qiladi [6:8].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiya va uning mazmuni, ijtimoiy faollik,

talabalarning ma'naviy-ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari bo'yicha bir qator olimlar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mamlakatimiz tadqiqotchilaridan D.Nafasav [5], Sh.Abdurazakova [1], N.Shayzakova [11] kabilarining ilmiy ishlari, darslik va o'quv qo'llanmalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni takomillashtirishni tashkil etish, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-shaxsiy, ijtimoiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod, vosita hamda texnologiyalari yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Sharq allomalarining shaxs ijtimoiy-madaniy kamolotidagi pedagogik qarashlari, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish muammolari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mazmunini o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Shaxs ijtimoiy – madaniy kamoloti ijtimoiy-madaniy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki darajasiga bog'liq bo'lib, uning ijtimoiy borliqqa munosabatini belgilaydi;

2. Bo'lajak o'qituvchilar ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish shaxs umumiy kamolotini ta'minlash hamda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, bugungi